e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar
Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies
ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/tbwaxs96

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FLORONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Kodirova Xusnora Rustamjon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, magistrant.
e-mail: Kadirova.kh95@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-0572-6145

Annotatsiya.
Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi floronimlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Floronimlarning nominativ vazifasi, giperonimik-giponimik munosabatlari, semantik guruhlari, nomlanish motivatsiyasi hamda lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda, shuningdek, floronimlarning tarixiy-etimologik qatlamlari va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: floronim, fitonim, leksik-semantik guruh, giperonim, giponim, nominatsiya, semantik maydon, lingvokulturologiya.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЛОРОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Кодирова Хуснора Рустамжон кизи
Андижанский филиал Кокандского университета, магистрант.

Аннотация.
В статье анализируются лексико-семантические особенности флоронимов в английском и узбекском языках. Рассматриваются номинативная функция флоронимов, их гиперонимико-гипонимические отношения, семантические группы, мотивация наименований и лингвокультурные особенности. Особое внимание в исследовании уделяется историко-этимологическим пластам флоронимов и вопросам их употребления в переносном значении.
Ключевые слова: флороним, фитоним, лексико-семантическая группа, гипероним, гипоним, номинация, семантическое поле, лингвокультурология.

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF FLORONYMS IN ENGLISH AND UZBEK

Kodirova Xusnora Rustamjon qizi
Andijan Branch of Kokand University, Master's Student.

Abstract.
This article analyzes the lexical-semantic features of floronyms in the English and Uzbek languages. It examines the nominative function of floronyms, their hypernymic-hyponymic relationships, semantic groups, naming motivation, and linguocultural characteristics. Particular attention is also paid to the historical and etymological layers of floronyms and their use in figurative meanings.
Keywords: floronym, phytonym, lexical-semantic group, hypernym, hyponym, nomination, semantic field, linguoculturology.

KirishHar bir tilning leksik tarkibi xalqning borliq haqidagi bilimlari, tarixiy tajribasi va madaniy qarashlarini aks ettiradi. O‘simlik nomlari lingvokulturologiyada ham muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilida floronimlar xalqning madaniyati va dunyoqarashini ifodalashga xizmat qilsa, o‘zbek tilida ham ushbu xususiyatlar bilan bir qatorda insonning his-tuyg‘ularini ifodalash imkoniyatiga ega.

FLORONIMLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK QATLAMLARI

Tarixga nazar tashlasak, qadim zamonlardan buyon o‘simliklar insoniyat uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshpana manbayi bo‘lib kelgan. O‘simliklar haqidagi dastlabki yozma manbalardan biri Aristotelning shogirdi, miloddan avvalgi 370–285-yillarda yashagan Teofrast tomonidan yaratilgan. Teofrast botanika fanining mustaqil fan sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. U o‘z asarlarida o‘simliklarning tibbiyot va iqtisodiyotda qo‘llanilishini tavsiflash bilan bir qatorda, botanikaning nazariy masalalarini ham ko‘rib chiqqan.

Botanika fani va unda qo‘llaniladigan terminlarning rivojlanishidagi muhim burilishlardan biri XV asr oxirida, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yuz bergan. Chunki o‘sha davrda bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o‘simliklarning yangi turlari olib kelingan, shuningdek, yangi kashf etilgan hududlardagi o‘simliklar o‘rganila boshlangan. Bu jarayon botanika fanining rivojlanishiga va yangi terminlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi floronimlarni leksik-semantik jihatdan tavsiflash, ularning semantik munosabatlari va nomlanish omillarini aniqlash hamda ikki til materiallari asosida umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatishdan iborat.

1. LEKSIK MAYDONDA TUTGAN O‘RNI

Floronimlar tilning leksik tizimida muhim o‘rin tutuvchi nominativ birliklar sirasiga kiradi. Ular nafaqat muayyan o‘simlik turini ifodalovchi nominativ vosita, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, etnografik qarashlari hamda tabiat haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklar ham hisoblanadi.

Rus tilshunosi Yu. Apresyan leksik ma’noni tilning semantik tizimidagi asosiy unsur sifatida talqin qilgan [1; 285-

ISSN 3060-5059 (Online)

b.]. Uning fikricha, har bir leksemaning ma'nosi boshqa birliklar bilan o'zaro semantik munosabatlar orqali shakllanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, floronimlarni sinonimiya, giperonimiya, giponimiya va semantik maydonlar doirasida tahlil qilish mumkin.

Yu. Apresyanning leksik birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlarga oid qarashlariga ko'ra, giperonimiya umumiy va xususiy ma'nolar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Giperonim — keng ma'noli, o'z tarkibiga boshqa tor ma'noli nomlarni birlashtiruvchi so'zdir. Giponim esa ma'no jihatidan giperonimga nisbatan torroq bo'lib, uning ma'no doirasiga kiruvchi leksik birlik hisoblanadi [1; 367-b.].

O'simlik nomlarining giperonimik va giponimik munosabatlar asosidagi tahlili quyidagicha:

Giperonim	Giponimlar
Gul	Lola, atirgul, chinnigul, binafsha
O'simlik	Gul, o't, daraxt, buta
Dorivor o'simlik	Na'matak, yalpiz, isiriq, moychechak
Daraxt	O'rik, terak, qayin, olma, gilos
Mevali daraxt	Olma, gilos, shaftoli, o'rik
Sabzavot	Kartoshka, sabzi, karam, piyoz
Donli ekin	Arpa, suli, bug'doy, makkajo'xori

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bu tizimni biz "umumiy–xususiy" munosabat sifatida tushunamiz. O'simlik — yuqori darajadagi giperonim, daraxt esa o'simlikning giponimi, ammo o'zidan keyingi birliklar uchun giperonim hisoblanadi. Mevali daraxt — daraxtning giponimi, olma va gilos nomlarining esa giperonimidir. Olma esa o'simlik nomi sifatida quyi darajadagi giponim bo'lib qoladi.

N. Arutyunova ta'kidlaganidek, floronimlarning giperonimik-giponimik munosabatlari ularning leksik-semantik guruhlarini tizimlashtirishga yordam beradi [2; 304–357-b.]. Shu tariqa har bir o'simlik nomi ma'no jihatidan kengligi va torligiga qarab boshqa birliklar bilan munosabatga kirishadi.

2. Floronimlarning lingvomadaniy xususiyatlari

V. Vinogradov har bir so'zning ma'nosini tarixiy rivojlanish natijasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, leksik birliklarning semantik tarkibi jamiyat taraqqiyoti va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq [4; 312-b.]. O'simlik nomlari xalqning turmush tarzi, tabiiy muhiti va xo'jalik munosabatlari ta'sirida shakllanib, yangi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

N. Arutyunova o'zining nominatsiya nazariyasida predmet hamda uning til orqali ifodalanishi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan [2; 304–357-b.]. Uning fikricha, har bir predmetning nomlanishida inson aql-idroki va konseptual dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Floronimlarning rang, hid, shakl, foydali xususiyatlar yoki yashash muhiti asosida nomlanishi ushbu nazariyaning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Yana bir rus tilshunosi O. S. Axmanova leksikologiyada semantik guruhlash asoslarini ishlab chiqqan va leksik birliklarni umumiy semantik belgilar asosida tasniflash zarurligini ta'kidlagan [3; 608-b.]. Ushbu yondashuv floronimlarni daraxtlar, butalar, dorivor o'simliklar, manzarali o'simliklar, yovvoyi hamda madaniy o'simliklar guruhlariga ajratishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

V. Teliya esa til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, leksik birliklar umummilliy va madaniy axborotni o'zida mujassamlashtirishini qayd etadi [5; 288-b.]. Ushbu nazariyaga ko'ra, ayrim o'simlik nomlari xalqning urf-odatlari va ramziy qarashlarini ifodalaydi.

3. Floronimlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi

Ingliz tilshunosi D. Crystal leksik birliklarning semantik rivojlanishini til evolyutsiyasining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etadi. Bunda o'simlik nomlari tarixiy taraqqiyot davomida metafora, metonimiya va semantik kengayish jarayonlari orqali yangi ma'nolarni ifodalaydi [6].

H. Sauer ingliz tilidagi o'simlik nomlarining tarixiy va madaniy taraqqiyotini o'rganib, ularning aksariyati qadimgi german, lotin va yunon tillaridan o'zlashganini ko'rsatadi [7]. Bu holat floronimlarning semantik taraqqiyotini tarixiy-etimologik jihatdan izohlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida ham floronimlarning leksikologiya, onomastika va terminologiya nuqtayi nazaridan leksik-semantik xususiyatlari o'rganilmoqda. O'zbek tilshunos olimlari o'simlik nomlarini ularning semantik belgilari, tuzilishi, etimologiyasi va nominativ xususiyatlarini hisobga olgan holda tasniflash zarurligini ta'kidlaydilar.

Ilmiy an'anada botanik terminlarni ifodalash uchun lotin tilidan keng foydalanilgan. Buning asosiy sabablaridan biri turli tillardagi o'simlik nomlarining har doim ham bir-biriga to'liq mos kelmasligidir. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim o'simlik nomlari o'rtasida leksik va semantik tafovutlar mavjud. Botanika fanining tarixiy taraqqiyotida yunon va lotin tillarining muhim o'rin tutgani ham ilmiy terminologiyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Vaqt o'tishi bilan ingliz va o'zbek tillarida o'simliklarni xalq uchun tushunarli bo'lgan milliy nomlar orqali ifodalash kengaydi. Biroq lotin tilidagi botanik terminlar xalqaro ilmiy muomalada o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Hozirgi kunda ham ular o'simliklarning ilmiy nomlarini ifodalashda xalqaro miqyosda qo'llaniladi.

FLORONIMLARNING SEMANTIK MAYDONI

O'zbek tilidagi o'simlik nomlari tuzilishi va ma'nosiga ko'ra bir qancha semantik xususiyatlarga ega. O'simliklar foydali jihatlari, tibbiyotdagi dorivor xususiyatlari hamda iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra turli guruhlarga ajratiladi. Bunday tasnif inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning til birliklarida qanday aks etishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'simlik nomlari hid, ta'm va boshqa sezgi xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun til tizimida muhim o'rin

ISSN 3060-5059 (Online)

egallaydi.

O‘simlik nomlarining yana bir muhim jihati ularning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishidir. Bu xususiyat o‘simlik nomlari orqali insonning tabiati, tashqi ko‘rinishi va ruhiy holatini ifodalash imkonini beradi. Natijada o‘simlik nomlarining semantik maydoni kengayib, ularning badiiy va publitsistik matnlarda qo‘llanish imkoniyatlari ortadi. Adabiyotda ular tasavvurni kuchaytiradi hamda tasviriylikni oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun floronimlar lingvokulturologiyaning muhim birliklaridan biri hisoblanadi.

TURLI SOHALARDA TUTGAN O‘RNI

O‘simlik nomlari semantik jihatdan san’at, adabiyot va boshqa turli sohalarda har xil ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Ularning semantik xususiyatlari umumiy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘simliklar xalq va millatning madaniy ramzlarini ifodalaydi.

Leksik-semantik maydonning asosiy jihatlaridan biri nomlash jarayonidir. Chunki har bir tanlangan leksemaning nomi muhim ahamiyatga ega. Leksemalarning semantik tashkil etilishi ularning keng qo‘llanilishi, umumiy ma’nosi, uslubiy neytralligi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari, vaqt jihatidan cheklanmaganligi hamda minimal semantik mazmuni bilan bog‘liq.

O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGINING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

O‘zbek tilshunosligida T. Nafasov nomshunoslik, ayniqsa, toponimika va nomlarning shakllanishi masalalarini o‘rgangan. U o‘z tadqiqotlarida har bir nomning shakllanishida tabiiy sharoit, xalqning tarixiy tajribasi va geografik muhit muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Ushbu qarash floronimlarning geografik va ekologik motivatsiyasini o‘rganish hamda tahlil qilishda katta ahamiyatga ega.

R. Sayfullayeva ham o‘zbek tilining zamonaviy leksik va grammatik tizimiga oid tadqiqotlarida leksemalarning ma’nosi, semantik munosabatlari hamda leksik birliklarning guruhlarga ajratilishiga e’tibor qaratgan [8; 200-b.]. Uning nazariy qarashlari floronimlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik tizimning ko‘p qatlamli qismini tashkil etuvchi floronimlarni o‘rganishga qaratilgan. Floronimlar nafaqat o‘simlik turlarini nomlashda qo‘llaniladi, balki xalqning tabiatga munosabati, madaniyati va tarixiy tajribasini ham ifodalaydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi floronimlar umumiy semantik guruhlar, nominativ tamoyillar, tarixiy-etimologik xususiyatlar va xalqona nomlash an’analariga ega. Floronimlarni gullar, butalar, daraxtlar, dorivor, yovvoyi, manzarali yoki madaniy o‘simliklar kabi guruhlarga ajratish ularning semantik belgilarini tizimli o‘rganishga yordam beradi.

Bundan tashqari, floronimlarning nominatsion motivatsiyasi rang, hid, shakl, foydali xususiyatlar va geografik omillar bilan uzviy bog‘liq. Floronimlarning ramziy va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi ularning lingvokulturologik hamda badiiy-estetik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Floronimlarni har tomonlama tadqiq etish uchun leksik-semantik tahlilni etimologik, lingvokulturologik va qiyosiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. – Москва: Наука, 1974. – 367 с. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA51000599. ci.nii.ac.jp
2. Арутюнова Н. Д. Номинация и текст // Языковая номинация: виды наименований / отв. ред. Б. А. Серебренников, А. А. Уфимцева. – Москва: Наука, 1977. – URL (to‘plam): https://search.rsl.ru/ru/record/01004458896. Search RSL
3. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 607 с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01007239346. Search RSL
4. Виноградов В. В. Лексикология и лексикография: избранные труды. – Москва: Наука, 1977. – 312 с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01007717459. Search RSL
5. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 284, [2] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001737508. Search RSL
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – URL: https://books.google.com/books?vid=ISBN0521530334. books.google.com
7. Sauer H., Kubaschewski E. (eds.). Planting the Seeds of Knowledge: An Inventory of Old English Plant Names. – Munich: utzverlag, 2018. – DOI: https://doi.org/10.5771/9783831674268. inlibra.com
8. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Raupova L. R., Qurbonova M. M., Abuzalova M. Q., Yo‘ldosheva D. N. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – URL: https://library.samdpi.uz/ebooks/view?id=24735. library.samdpi.uz